



Jizzax davlat
Pedagogika
universiteti

TARIX FAKULTETI



TARIX
va
JAMIYAT

JOURNAL
2023



№5

HISTORY AND SOCIETY
ИСТОРИЯ И ОБЩЕСТВО
общественный электронный
ЖУРНАЛ



TARIX VA JAMIYAT ILMIY ELEKTRON JURNAL

2023-yil 5-son Ijtimoiy-gumanitar fanlar
Tarix, falsafa, huquq, sotsiologiya, o'qitish metodikasi

Bosh muharrir: Pardayev A.H. JDPU, tarix fakulteti dekani,
t.f.n., dotsent.

Bosh muharrir o'rinbosari: Aqchayev F.Sh. JDPU, t.f.b.f.d. (PhD), dotsent.

Mas'ul kotib: Saidov J.O. JDPU, Tarix fakulteti o'qituvchisi

TAHRIRIYAT A'ZOLARI:

1. Sagdullayev A.S. – tarix fanlari doktori, Akademik
2. Ahmedshina F.A. – tarix fanlari doktori, professor
3. Shodmonova S.B. – tarix fanlari doktori, professor
4. Ochilova B.M. – falsafa fanlari doktori, professor
5. Choriyev S. – falsafa fanlari doktori, professor
6. Tulenova G. J. – falsafa fanlari doktori, professor
7. Pardayev M.H. – tarix fanlari doktori, dotsent
8. G'oyibov B.S. – tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
9. Yarmatov R.B. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
10. Saidqosimov A.I. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
11. Amanullayev A. – f.f.b. fan doktori (PhD), dotsent
12. Toshboyev F.E. – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
13. Mirkomilov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent
14. Saidov M. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent
15. G'ofurov J.I – tarix fanlari bo'yicha fan doktori (PhD), dotsent
16. Hoshimxonov M.X. – f.f.b. fan doktori (DSc), dotsent
17. Valiyev A.X. – katta o'qituvchi
18. Majidov A.S. – katta o'qituvchi

Dizayner va sahifalovchi: Axmurodov D.Q

Vodiy qoraqalpoqlari turmush tarzi va xo‘jalik madaniy an‘analari

Orif Abdig‘apparov - JDPU,

O‘zbekiston tarixi stajyor-o‘qituvchisi

Ra‘no Nosirova - Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: O‘troq dehqonchilik muhitida ko‘chmanchi chorvachilik an‘analarining o‘zgarishi va etnoxo‘jalik aloqalarining jadallashuvi” vodiy hududiga ko‘chib kelib joylashgan qoraqalpoq jamoalarining chorvachilikka xos bo‘lgan an‘anaviy turmush tarzi hamda mahalliy o‘troq aholi xo‘jalik an‘analariga moslashish jarayonlari

Kalit so‘zlar: Vodiy hududi, Qo‘qon uezdi, Farg‘ona qoraqalpoqlari, Namangan viloyati, daryo va ko‘lb.

Аннотация: «Изменение кочевых скотоводческих традиций и ускорение этноэкономических связей в условиях оседлого земледелия» традиционный скотоводческий образ жизни каракалпакских общин, мигрировавших в долинный регион, и процессы приспособления местного оседлого населения к джалыкским традициям.

Ключевые слова: Долинный район, Коканский район, ферганские каракалпаки, Наманганский район, река и озеро.

Abstract: "Changes in nomadic cattle-breeding traditions and acceleration of ethno-economic relations in the environment of settled agriculture" traditional cattle-breeding lifestyle of the Karakalpak communities that migrated to the valley region and the local settled population processes of adaptation to Jalik traditions

Key words: Valley area, Kokan district, Fergana Karakalpaks, Namangan region, river and lake.

Vodiy hududiga ko‘chib kelib joylashgan qoraqalpoq jamoalarining chorvachilikka xos bo‘lgan an‘anaviy turmush tarzi hamda mahalliy o‘troq aholi xo‘jalik an‘analariga moslashish jarayonlari o‘rganilgan. Vodiy qoraqalpoqlarining an‘anaviy xo‘jaligi haqida to‘xtalganda, ularning chorvachilik xo‘jaligi asosini yirik shohli mollar tashkil etganligini alohida ta‘kidlash joiz. Chunki, mayda shohli xayvonlarning harakatlanishi mumkin bo‘lmagan qamishzor, chakalakzor va botqoqli joylardan qoraqalpoqlarning yirik shohli chorva mollari o‘tishi imkoni bo‘lgan.[1.b .18] Ularni chorvachilik yuritish usuli yarimo‘troq etnoslarga xos bo‘lib, ko‘chmanchi chorvador xalqlardan farq qilgan.

Quyidagi statistik ma‘lumotlarda Farg‘ona qoraqalpoqlarining chorvachilik xo‘jaligi tarkibi va uning nisbati ko‘rsatilgan. “1917 yilgi Butunrossiya qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari”ga ko‘ra Qo‘qon uezdining qoraqalpoqlar zich yashaydigan Qoraqalpoq volosti aholisining chorvador xo‘jaligidagi chorva tarkibini 49% ini yirik shoxli mollar, 32 %ini qo‘y, 14.7% ini ot, 3.8 % ini echki tashkil etgan.[2.b .68]

Vodiy qoraqalpoqlarini daryo bo‘ylarida joylashish sabablarining an’anaviy chorvachilik bilan bog‘liq jihatlari qoraqalpoqlar tomonidan tashkil qilingan qishloqlarda olib borilgan dala etnografik tadqiqotlar natijalarida ham o‘z aksini topdi. Xususan, so‘rovnomalar hamda kekxa yoshdagi axborotchilar[3.b .190]:“Sir yoqalab ketaveramiz, Sir bo‘ylarida to‘qayzorlar, qamishzorlar ko‘p. Daryo bo‘ylari chorva – mol, qo‘y, yilqi boqish uchun ancha qulay.” – deb, aynan daryo va ko‘llar bo‘ylab joylashganliklarini ta’kidlaydilar[4.b .66]. Daryo va ko‘l bo‘ylari qoraqalpoq etnik guruhlarining an’anaviy xo‘jalik faoliyatini yuritish bilan bog‘liq ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat qilgan. Bugungi kunda ham ular chorva mollarini boqish uchun daryobo‘yi hududlaridan foydalanadilar.

Masalan, Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumaniga qarashli Qoraqalpoq, Oymaut hamda Namangan viloyati Pop tumanidagi Kenagas qishloqlari aholisi chorva hayvonlarini boqish uchun mavjud to‘qayzorlardan foydalanib kelmoqdalar. Axborotchilar keyingi yillarda chorva tuyog‘i soni kamayganligi, lekin shunda ham o‘zbeklar chorvasiga nisbatan qoraqalpoq chorva mollarining ko‘pligini ta’kidlaydilar[5.b .89] Jumladan, Namangan viloyati, Norin tumani Kemaboshi qishlog‘i aholisining qariyb 80%i chorvachilik bilan shug‘ullanib kelmoqda. Ma’lumki, dehqonchilik O‘rta Osiyo aholisi xo‘jalik yuritishining asosiy tarmog‘i hisoblanadi va bu soha o‘zining qadimiy ildizlariga ega.

Farg‘ona vodiysida qoraqalpoq etnik guruhlarining dehqonchilikka o‘tish jarayoni ular joylashgan hududlardagi chorva uchun yaylov va o‘tloq maydonlarining keskin qisqarishi bilan bevosita bog‘liq holda kechgan.[6.b .72] Boz ustiga vodiydagi tig‘iz etnomadaniy aloqalar, etnoslararo faol integratsiya va assimilyatsiya jarayonlari barcha azaliy chorvador xalqlarning o‘troqlashuviga va dehqonchilikning yanada rivojlanishiga olib keldi. Qoraqalpoqlar dastlab, daryo va ko‘llar bo‘yidagi botqoq yerlarni qamish va butalardan tozalab, dehqonchilik qila boshlaganlar. Damko‘l, Ashiko‘l, Mingbuloq kabi vodiydagi yirik ko‘llardan qoraqalpoqlar ariq chiqarib, o‘zegin maydonlarini sug‘organliklari haqida manba va tadqiqotlarda ko‘plab ma’lumotlar uchraydi.[7. b.32]

XIX asrning oxirlaridan Farg‘ona qoraqalpoqlarida dehqonchilik yetakchi xo‘jalik tarmog‘iga aylana boshlaganligini statistik ma’lumotlar tasdiqlaydi. Masalan, 1897 yilda Farg‘ona vodiysida ro‘yxatga olingan 11056 nafar qoraqalpoqdan 10199 nafari, ya’ni 92 foiziga yaqini dehqonchilik hisobiga yashaganlar.[8.b .122]

Qoraqalpoqlar o‘z yashash joylarining tabiiy iqlim sharoitidan, ekin maydonlarining tabiiy tanlanish holatidan hamda tuproqning tarkibiy tuzilishidan kelib chiqib, dehqonchilikning ayrim turlari bo‘yicha ixtisoslasha borganlar. Chunonchi, Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani Kichik oqtepa qishlog‘i aholisi

ushbu qishloq hududi tuprog'ining tarkibi xalq orasida "qattiq kesakli" deb atalib, yeri qattiq bo'lganligi bois asosan, poliz ekinlari yetishtirish bilan shug'ullanganlar.

Albatta, vodiy qoraqalpoqlarining dehqonchilikda ekin maydonlari va turlari kengayib, yillar davomida rivojlanib borgan.

Asta – sekin qoraqalpoqlar ham poliz ekinlaridan tashqari boshqa turdagi ekinlarni yetishtira boshlaganlar. Masalan, XX asrning 60-70 yillarida ayrim qoraqalpoq qishloqlarida sholi hamda qovun-tarvuz ekilgan.

Xulosa, Farg'ona vodiysida joylashgan qoraqalpoqlar dehqonchilik xo'jaligida qo'shni o'troq xalqlar, birinchi galda mahalliy o'zbeklar ta'sirida bir qator transformatsiya jarayonlari sodir bo'lgan. Vodiylik qoraqalpoqlar dehqonchilik xo'jaligidagi bu o'zgarishlar an'analarni innovatsiyalar bilan almashinuvida xususan, sug'orma dehqonchilikni kengayib borishi, qoraqalpoqlar uchun noan'anaviy bo'lgan ekin turlarini yetishtirish hamda agrotexnik bilim va ko'nikmalarini ortib borishida namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Sredneaziatskiy etnograficheskiy sbornik. Выр. IV. – Moskva, «Nauka», 2001. – S.18.
- 2.Tolstova L.S. Karakalpaki Ferganskoy dolinы... – S.68
- 3.Telyatnikov D.I, Beznosikov A.V.Obozrenie Kokandskogo xanstva v nymeshnom yego sostoyanii // Zapiski RGO, kn.3.– SPb., 1849. – S.190.
- 4.Tolstova L.S. Karakalpaki za predelami Xorezmskogo oazisa v XIX nachale XX veka. – Nukus. 1963. C. 66.
- 5.Materialы Vserossiyskix perepisey 1917 g. Perepis naseleniya Ferganskoy oblasti. – Tashkent, 1924. C. 89
6. Nazarov F.Zapiski o nekotoryx narodax i zemlyax Sredney chasti Azii, – S..72;
- 7.Kushelevskiy V.N. Materialы dlya meditsinskoy geografii...– S. 77-78; Tolstova L.S. Karakalpaki Ferganskoy dolinы... – S. 32-33
8. Vseobshaya perepis naseleniya Rossiyskoy imperii. SPb, 1905 T.89 tabl. XXII. – S. 122-123.